O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	868
Karimov Mirolimjon Karimjon o'g'li	
ПРОБЛЕМЫ МЕЖДУНАРОДНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	875
Аликулов С. А., Хамракулова О. Д.	
YASHIL IQTISODIYOTDA KORXONALAR BOSHQARUV MEKANIZMLARINING EVOLYUTSIYASI: KONSEPTUAL TAHLIL.....	880
Nabiev Bobur Muhammadqosim o'g'li	
SUD-HUQUQ TIZIMINI YANADA DEMOKRATLASHTIRISH: JORIY HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	884
Majidov Muslimbek Maxamadjon o'g'li	



IQTISODIYOTNI LIBERALLASHTIRISH SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA KLASSTERLARNI TASHKIL ETISHNING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	889
Xo'jageldiyev Chorshanbi Pardayevich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	893
Shaymanova Nigora Yusupovna	
XO'JALIK FAOLIYATINI SAMARADORLIGI VA BIZNES HOLATINI BAHOLASH	899
Abdukarimova Muslima Abduaziz qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
CROSS-BORDER E-COMMERCE IN CENTRAL ASIA.....	904
Bakhtiyorjon Komilov	
O'ZBEKISTONDA NORASMIY SEKTOR ISHCHILARINING PENSIYA TA'MINOTI MASALALARI.....	908
Abdulazizova Nargiza Baxodir qizi	
KORXONA VA TASHKILOTLARDA QOG'OZ SARFINI OPTIMALLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBASI	913
Oripov Mirzo Mahmudovich	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ЗАЩИТЕ ВНУТРЕННЕГО РЫНКА ОТ КОНТРАФАКТНОЙ ПРОДУКЦИИ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН).....	917
Ибраимова Махсура Уснатдин кизи	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	922
Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi	
THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES ON THE PROCESSES OF DIGITAL TRANSFORMATION IN THE INSURANCE INDUSTRY.....	927
D.D.Omonova	
THE ROLE OF INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS IN THE GLOBAL ECONOMY AND THEIR STAGES OF DEVELOPMENT	933
Yovkochev Sherzod	
YURIDIK SHAXSLARNI YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILAR TOIFASIGA KIRITISH MEZONLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	941
To'raqulov Bekzod Hazratqul o'g'li	
BUTUNJAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LIHDA SOLIQ TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	945
Xojakbar Zaynabidinov	
BANK TIZIMIDA TAVAKKALCHILIK TUSHUNCHASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	950
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
REAL SEKTOR TARMOQLARINI KREDITLASHDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	955
Savurbayev Zafar Abdumuminovich	
INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK OMILLARI VA ULARNING BOSHQARUVI	960
D. G. Bazarov	
YANGI O'ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK SOHASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH HAMDA KOMPLEKS TIZIMLASHTIRISH	966
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	
XIZMATLAR KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSIYA FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLI TAVSIYALAR	971
Xudayberdiyeva Nargiza Nizomiddin qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	976
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLARNI ISHLAB CHIQRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	981
Mirzayev Kobil Nosirjonovich	



PUL AYLANMASINI TASHKIL QILISHNING XORIJ TAJRIBASI VA O'ZBEKISTONDA FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI.....	987
Gadoyev So'hrob Jumakulovich	
MARKETING VA TOVAR STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	993
Ibadullayeva Sevara Allashukurovna, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
PILLACHILIK SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA VA DAVLAT KO'MAGIGA OID METODOLOGIK YONDASHUVLAR	998
Xudoykulov Mamarasul Radjabovich	
SURXONDARYO VILOYATIDAGI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING QURILISH SOHASIDAGI ULUSHINING TREND MODELLARI ORQALI TAHLILI	1005
Mamatkulova Xurshida Nasrullayevna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASES OF TEXTILE PRODUCTS MARKET SEGMENTATION	1012
Ibaydullaeva Feruza Kholjuraevna	
O'ZBEKISTONNING JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHGA QARSHI KURASH TIZIMIGA SUN'YI INTELLEKTNI INTEGRATSIYASI: BANK SEKTORIDA JORIY ETISHNING POTENSIALI VA TO'SIQLARINI BAHOLASH	1018
Rashidov Avazbek Raximovich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1025
Shermatov Sirojiddan Xaydarovich	
РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УСОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ КОМПОНЕНТОВ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД»	1029
Иминов Акбаржон Одилжонович	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA BOSHQARUV SALOHİYATINI OSHIRISH	1034
Tleubergenov Raxat Shahibaevich	
THE ROLE OF ESG IN ADVANCING CORPORATE REFORMS IN UZBEKISTAN	1038
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA MARKETING ROLI ORQALI IQTISODIY SIYOSATGA TA'SIRI.....	1043
Egamberdiyev Muzaffar	
DAVLAT BUDJETI JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1046
Nosirov Islombek Xurram o'g'li	



DAVLAT BUDJETI JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI: XALQARO TAJIRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI

Nosirov Islombek Xurram o'g'li

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti magistranti

E-mail: islombekn499@gmail.com

ORCID: 0009-0008-3274-1934

Annotatsiya. Maqolada davlat budget jarayonining nazariy asoslari, xalqaro tajribasi va O'zbekiston Respublikasida ushbu jarayonni optimallashtirish yo'nalishlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Budget jarayoni moliyaviy resurslarni shakllantirish, taqsimlash va ulardan samarali foydalanishning kompleks mexanizmi sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada O'zbekiston misolida budget jarayonini raqamlashtirish, natijadorlikka asoslangan budgetlashtirish, shaffoflikni oshirish hamda mahalliy budgetlarning mustaqilligini kuchaytirish kabi strategik yo'nalishlar yoritilgan.

Kaliit so'zlar: davlat budjeti, budget jarayoni, fiskal siyosat, natijadorlikka asoslangan budget, shaffoflik, raqamlashtirish.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the theoretical foundations of the budget process, international experience, and directions for optimizing this process in the Republic of Uzbekistan. The budget process is viewed as a comprehensive mechanism for the formation, allocation, and efficient use of financial resources. The article also highlights strategic directions such as the digitalization of the budget process, performance-based budgeting, enhancing transparency, and strengthening the autonomy of local budgets, using Uzbekistan as an example.

Key words: state budget, budget process, fiscal policy, performance-based budgeting, transparency, digitalization.

Аннотация. В статье научно анализируются теоретические основы бюджетного процесса, международный опыт и направления оптимизации данного процесса в Республике Узбекистан. Бюджетный процесс рассматривается как комплексный механизм формирования, распределения и эффективного использования финансовых ресурсов. Кроме того, в статье освещены такие стратегические направления, как цифровизация бюджетного процесса, бюджетирование, основанное на результативности, повышение прозрачности и укрепление самостоятельности местных бюджетов на примере Узбекистана.

Ключевые слова: государственный бюджет, бюджетный процесс, фискальная политика, бюджетирование, основанное на результативности, прозрачность, цифровизация.

KIRISH

Davlat budjeti mamlakat iqtisodiy tizimining markaziy bo'g'ini bo'lib, uning asosiy iqtisodiy ahamiyati milliy resurslarni qayta taqsimlash, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlash hamda davlat dasturlarini moliyalashtirish orqali namoyon bo'ladi. Budget mexanizmi iqtisodiy muvozanatni saqlash, investitsion muhitni yaxshilash va makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois, davlat budjeti mamlakatning iqtisodiy siyosatini moliyaviy asos bilan ta'minlovchi hamda ijtimoiy farovonlikni oshirishga ko'maklashuvchi eng muhim vositalardan biri sifatida qaraladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan fiskal islohotlar natijasida budget boshqaruvi tizimi bosqichma-bosqich takomillashib, natijadorlikka yo'naltirilgan yondashuvlar shakllanmoqda. Bunday islohotlar



budjet jarayonini aniq maqsadlar, o'lchovli natijalar va ochiqlik tamoyillari asosida tashkil etishni talab etadi. Natijada, davlat budjeti jarayoni faqat moliyaviy mablag'larni taqsimlash tizimi emas, balki iqtisodiy siyosatni amalga oshirish, nazorat qilish va tahliliy asoslash imkonini beruvchi kompleks boshqaruv mexanizmiga aylanmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat budjeti jarayoni — bu davlat moliyaviy resurslarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan samarali foydalanishni ta'minlaydigan tizimli hamda ilmiy asoslangan mexanizmdir.[1]¹ Ushbu jarayon orqali davlat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, investitsion faollikni rag'batlantirish va aholining ijtimoiy himoyasini mustahkamlash kabi asosiy makroiqtisodiy vazifalarni amalga oshiradi. Budjet jarayoni, shuningdek, resurslarni qayta taqsimlash orqali ijtimoiy adolatni kuchaytiradi va davlat dasturlari hamda strategik yo'nalishlarning moliyaviy ta'minotini kafolatlaydi.[2]²

Nazariy jihatdan, davlat budjeti nafaqat daromad va xarajatlarning yig'indisi, balki iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni tartibga soluvchi muhim instrument sifatida qaraladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, budjet tizimi iqtisodiy siyosatni moliyaviy vositalar orqali amalga oshiradi va uning samaradorligi resurslarni oqilona taqsimlash, xarajatlarning natijadorligini oshirish va shaffoflikni ta'minlash bilan belgilanadi. Shu bois, budjet jarayoni davlatning moliyaviy barqarorligini saqlash hamda ijtimoiy farovonlikni yuksaltirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi kontekstida davlat budjeti jarayoni markazlashgan tizim asosida shakllangan bo'lib, u uch darajadan — respublika, viloyat va mahalliy budjetlardan iborat. Har bir daraja o'z vakolatlari doirasida moliyaviy resurslarni boshqaradi va yuqori darajadagi budjet bilan uzviy uyg'unlikda faoliyat yuritadi. [3]³ So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan raqamlashtirish, natijadorlikka asoslangan rejalashtirish va shaffoflikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar budjet jarayonining samaradorligini yanada kuchaytirmoqda.

Davlat budjeti jarayonining xalqaro tajribasini tahlil qilish turli mamlakatlarda budjet jarayoni qanday tashkil etilganini solishtirish va amaliy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Ushbu yondashuv orqali fiskal siyosatning rejalashtirish, tasdiqlash va hisobot bosqichlari bo'yicha farqlari o'rganiladi va optimal yechimlar aniqlanadi.

AQSH, Qozog'iston, Rossiya, Janubiy Koreya va Avstraliya davlatlarining budjet jarayoni bo'yicha taqqoslama ma'lumotlari — loyihaning ishlab chiqilish muddatlari, parlament yoki kongressda tasdiqlanish jarayoni va hisobot davrining tuzilishi — O'zbekiston uchun muhim amaliy o'rganish manbai hisoblanadi. Ushbu mamlakatlar turli iqtisodiy tizim va fiskal boshqaruv tajribalariga ega bo'lganligi bois, ularning jarayonlarini o'rganish milliy yondashuvni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ushbu xalqaro tajriba nazariy asoslar bilan uyg'un holda tahlil qilinishi mumkin. Richard Musgrave (1959-yil) fikriga ko'ra, davlat budjetining asosiy vazifalari resurslarni optimal taqsimlash, daromadlarni qayta taqsimlash va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdan iborat. Keynes (1936-yil) esa davlat xarajatlarning iqtisodiy sikllarni muvozanatlashtirishdagi muhim rolini ta'kidlaydi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonning budjet jarayonini optimallashtirish yo'nalishlari xalqaro tajribalar va iqtisodiy nazariyalar bilan uzviy bog'liqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot davlat budjeti jarayonining nazariy asoslari, xalqaro tajribasi va O'zbekiston amaliyotini o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, metodologiya sifatida ilmiy-nazariy manbalarni tahlil qilish, Qozog'iston, AQSH, Rossiya, Janubiy Koreya va Avstraliya kabi davlatlarning budjet jarayonlari bo'yicha solishtirma (komparativ) tahlil, O'zbekistonning normativ-huquqiy hujjatlari hamda Iqtisodiyot va Moliya vazirligi ochiq ma'lumotlari asosida amaliy tahlil, shuningdek raqamlashtirish, natijadorlikka asoslangan budjetlashtirish, shaffoflik va mahalliy budjetlar mustaqilligi kabi islohotlarning samaradorligini baholashdan iborat bo'ldi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Quyida keltirilgan jadvaldagi ma'lumotlar mamlakatlararo solishtirma tahlil uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tahlillar O'zbekiston sharoitida budjet jarayonini raqamlashtirish, natijadorlikka asoslangan budjetlashtirish va shaffoflikni kengaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni shakllantirishga yordam beradi (1-jadval).

1 O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi. — Toshkent: "Adolat", 2024-yil.

2 Musgrave, R. A. *The Theory of Public Finance*. — New York: McGraw-Hill, 1959.

3 O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligining yillik va choraklik hisobotlari. — Toshkent, www.mf.uz.

1-jadval. Davlat budjeti jarayonining xalqaro taqqoslamasi [4]⁴

No	Davlat nomi	Loyihani tayyorlash boshlanishi	Tasdiqlanish muddati	Hisobot yili	Bosqichlari
1	Qozog'iston	Iyun oyida Moliya vazirligi budjet so'rovnomasini yuboradi	Noyabr–dekabr oylarida parlament tomonidan tasdiqlanadi	1-yanvar – 31-dekabr	4 bosqich
2	AQSH	Fevral oyida Prezident budjet loyihasini Kongressga taqdim etadi	30-sentyabrgacha Kongress tomonidan tasdiqlanadi	1-oktabr – 30-sentyabr	4 bosqich
3	Rossiya	1-martda Moliya vazirligi budjet loyihasini shakllantirishni boshlaydi	30-sentyabrgacha parlamentga kiritiladi; dekabr oyida tasdiqlanadi	1-yanvar – 31-dekabr	4 bosqich
4	Janubiy Koreya	Mart oyida budjet rejalashtirish boshlanadi	Dekabr oyida parlament tomonidan qabul qilinadi	1-yanvar – 31-dekabr	4 bosqich
5	Avstraliya	Yanvar–fevral oylarida tayyorlash boshlanadi	May oyida "Budget Night"da e'lon qilinadi	1-iyul – 30-iyun	4 bosqich

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, turli mamlakatlarda budjet jarayonining davomiyligi, uni tayyorlash va tasdiqlash muddatlari sezilarli darajada farqlanadi. Masalan, AQSHda budjet yili 1-oktabr – 30-sentyabr sanalarini qamrab oladi, Qozog'istonda esa hisobot davri 1-yanvar – 31-dekabr tarzida shakllangan. Shuningdek, Rossiya va Janubiy Koreyada budjet loyihasi odatda mart oyida ishlab chiqila boshlasa, Avstraliyada budjet yili iyul–iyun tizimiga mos ravishda rejalashtiriladi.

Ushbu farqlar har bir mamlakatning iqtisodiy modeli, fiskal siyosati va hukumat boshqaruvidagi institutlar rivojlanishiga moslashgan boshqaruv amaliyotlaridan dalolat beradi. O'zbekiston sharoitida esa budjet jarayoni nisbatan markazlashgan bo'lsada, so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan fiskal islohotlar tufayli raqamlashtirish, natijadorlikka asoslangan budjetlashtirish, shaffoflikni oshirish va mahalliy budjetlar mustaqilligini kuchaytirish orqali xalqaro standartlarga yaqinlashmoqda.

Xalqaro tajribani taqqoslash natijasida O'zbekiston uchun quyidagi yo'nalishlarni yanada takomillashtirish imkoniyati mavjud:

- Budjet loyihasini tayyorlash va tasdiqlash jarayonini yanada tizimli, aniq mezonlarga asoslangan va ochiq shaklda tashkil etish.
- Budjet ijrosi va hisobot berish bosqichlarida raqamli monitoring tizimlaridan keng foydalanish.
- Mahalliy budjetlar mustaqilligini oshirib, resurslardan samarali va oqilona foydalanish mexanizmlarini kuchaytirish.
- Budjet jarayonida shaffoflikni oshirish, jamoatchilik nazorati va hisobdorlikni kuchaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikni yanada yuksaltirish.

O'zbekiston Respublikasida budjet loyihasini tayyorlash jarayoni Iqtisodiyot va Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.[5]⁵ Ushbu jarayon quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Makroiqtisodiy prognozlar, soliq tushumlari va budjet parametrlarini shakllantirish.
2. Davlat xarajatlari tuzilmasini, qarz siyosatini va fiskal barqarorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish.
3. Hukumat tomonidan budjet loyihasini tasdiqlash va uni Oliy Majlisga ko'rib chiqish uchun taqdim etish.
4. G'aznachilik tomonidan budjet ijrosini ta'minlash, yillik hisobotlarni shakllantirish va parlamentga taqdim etish.[6]⁶


4 Manba: Muallif tomonidan Qozog'iston Milliy iqtisodiyot vazirligi (2024-yil), AQSh OMB (2024-yil), Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligi (2024-yil), Janubiy Koreya Iqtisodiyot va moliya vazirligi (2024-yil) hamda Avstraliya Moliya departamenti (2024-yil) ma'lumotlari asosida tuzilgan.

5 G'ulomov S. S., To'laganov R., Qosimov B. Moliya nazariyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2023-yil.

6 O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi. Davlat moliyasi barqarorligini ta'minlash bo'yicha yillik hisobot. — Toshkent, 2025-yil.



Ushbu bosqichlar mamlakatda fiskal siyosatning izchil amalga oshirilishiga, budget resurslaridan oqilona foydalanishga hamda davlat moliyaviy boshqaruvining institutsional samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.



1-chizma. Davlat budjeti jarayoni to'rt bosqichdan iborat.

Bu tizimli yondashuv budgetning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, resurslarni samarali taqsimlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish imkonini beradi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda budget jarayonini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari belgilangan. Ushbu yo'nalishlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Raqamlashtirish va avtomatlashtirish

"Elektron budget" tizimi orqali barcha darajadagi budgetlar yagona platformada yuritiladi hamda budget ijrosi va hisobotlari real vaqt rejimida monitoring qilinadi.[7]⁷ "Elektron budget" tizimi arxitekturasini:

- Yagona platforma
- Budget ijrosi
- Hisobotlar

2. Natijadorlikka asoslangan budgetlashtirish

Har bir xarajat uchun aniq maqsad va o'lchovli natijalar belgilanadi. Budget ijrosida mas'ul tashkilotlar va mansabdor shaxslar natija uchun to'liq javobgar bo'ladi. Bu yondashuv samaradorlikni kuchaytiradi va budget resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlaydi.

3. Shaffoflik va jamoatchilik nazorati

"Ochiq budget" portali orqali davlat xarajatlari haqida fuqarolarga to'liq va ochiq ma'lumot taqdim etiladi. Fuqarolik budjeti loyihalari va jamoatchilik muhokamalari shaffoflikni mustahkamlaydi va davlat boshqaruvida ishonchni oshiradi.

4. Mahalliy budjetlarning mustaqilligi

Soliq bazasini kengaytirish, hududiy rivojlanish dasturlarini mahalliy sharoitlarda amalga oshirish imkoniyatining oshishi natijasida hududlar moliyaviy resurslardan samarali foydalanadi. Bu jarayon hududiy iqtisodiy faollik va mas'uliyatni kuchaytiradi.

Ushbu yo'nalishlar budget jarayonini yanada samarali, shaffof va xalqaro standartlarga mos tizimga aylantirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonning budget jarayoni xalqaro tajribaga moslashtirilmoqda. Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) va OECD tavsiyalari asosida amalga oshirilayotgan islohotlar quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:[8]⁸

- Fiskal intizomni ta'minlash (budget defitsitini nazorat ostida saqlash);
- Samaradorlikni oshirish (budget xarajatlarini natijadorlikka yo'naltirish);
- Shaffoflikni kuchaytirish (budget ma'lumotlarining jamoatchilikka ochiqligi).

7 Malikov T.S., Olimjonov O.O. Moliya: darslik. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019-yil.

8 World Bank, IMF, OECD. Public Financial Management Reform Guidelines. – Washington, 2022.



O'zbekiston 2020-yilda ishga tushirilgan "Ochiq budget axborot portali"[9]⁹ ushbu tamoyillarni amaliyotga tatbiq etishning eng muhim vositalaridan biriga aylandi. Mazkur portal orqali budget hisobotlari xalqaro standartlarga mos ravishda e'lon qilinadi, mahalliy budgetlarning samaradorligi monitoring qilinadi hamda jamoatchilik ishonchi va iqtisodiy nazorat kuchayadi.

O'zbekiston budget jarayonining xalqaro standartlar bilan uyg'unligi:

- Fiskal intizom
- Samaradorlik
- Shaffoflik

Shu tarzda, O'zbekistonning budget jarayoni nafaqat ichki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi, balki xalqaro moliya institutlari talablariga mos keluvchi zamonaviy va samarador tizimga aylanmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat budgeti jarayoni har bir mamlakatning moliyaviy siyosatida markaziy o'rin tutadi. U iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va milliy resurslarning samarali taqsimlanishini boshqaruvchi asosiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, budget jarayonining samaradorligi nafaqat moliyaviy mablag'larni taqsimlash jarayoniga, balki ularni boshqarish, monitoring qilish va natijadorlikni baholash tizimlarining sifatiga ham bevosita bog'liqdir. Shu jihatdan, budget jarayonini optimallashtirish iqtisodiy siyosatning strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro tajriba (AQSH, Rossiya, Qozog'iston, Janubiy Koreya, Avstraliya misolida) shuni ko'rsatadiki, budget jarayonining aniq reglamentlangan bosqichlarga ega bo'lishi, parlament nazorati va jamoatchilik ishtiroki, shuningdek shaffoflik va hisobdorlikning yuqori darajada ta'minlanishi iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Musgrave (1959-yil) va Keynes (1936-yil) tomonidan ilgari surilgan nazariyalar ham budget mexanizmining resurslarni qayta taqsimlash, iqtisodiy sikllarni muvozanatlashtirish va davlatning ijtimoiy majburiyatlarini bajarishda asosiy vosita bo'lib xizmat qilishini ta'kidlaydi. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan fiskal islohotlar natijasida budget jarayoni bosqichma-bosqich zamonaviy tamoyillarga moslashtirilmoqda. "Elektron budget" tizimining joriy etilishi, natijadorlikka yo'naltirilgan budgetlashtirish mexanizmlarining qo'llanishi, "Ochiq budget" portali orqali shaffoflikni kuchaytirish hamda mahalliy budgetlar mustaqilligini oshirish davlat moliyasini boshqarish samaradorligini sezilarli ravishda oshirmoqda va zamonaviy xalqaro standartlarga moslashuvni jadallashtirmoqda. Ushbu tahlillar asosida O'zbekiston uchun budget loyihasini tayyorlashda o'rta muddatli rejalashtirish mexanizmlarini keng joriy etish, mahalliy budgetlarning mustaqilligini kuchaytirish orqali hududiy rivojlanishni moliyaviy jihatdan rag'batlantirish, budget ma'lumotlari shaffofligini yanada oshirish va fuqarolarning ishtirokini kengaytirish, shuningdek xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga to'liq mos monitoring tizimini joriy etish kabi ustuvor takliflarni ilgari surish mumkin. Xulosa qilib aytganda, davlat budgeti jarayonini optimallashtirish O'zbekistonning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, investitsion muhitni yaxshilash va fuqarolik jamiyatining davlat moliyasiga nisbatan ishonchini kuchaytirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois, budget siyosatini ilmiy asosda takomillashtirish, raqamli boshqaruv vositalarini keng joriy etish va xalqaro tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish istiqbolda mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksi. – Toshkent: "Adolat", 2024.
2. Musgrave, R.A. The Theory of Public Finance: A Study in Public Economy. – New York: McGraw-Hill, 1959.
3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi rasmiy hisobotlari. – URL: www.mf.uz
4. Muallif tomonidan tuzilgan: Qozog'iston Milliy iqtisodiyot vazirligi (2024), AQSh OMB (2024), Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligi (2024), Janubiy Koreya Iqtisodiyot va moliya vazirligi (2024) va Avstraliya Moliya departamenti (2024) ma'lumotlari asosida.
5. G'ulomov, S.S., To'laganov, R., Qosimov, B. Moliya nazariyasi. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2023.
6. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi. Davlat moliyasi barqarorligini ta'minlash bo'yicha yillik hisobot. – Toshkent, 2025.
7. Malikov, T.S., Olimjonov, O.O. Moliya. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2019.
8. World Bank. Public Financial Management Reform Guidelines. – Washington: World Bank Publications, 2022.
9. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi rasmiy sayti. – URL: www.mf.uz
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5054-son qarori. "Davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasi to'g'risida". – 2021-yil 26-aprel. <https://www.lex.uz/uz/docs/-5356603?ONDATE=22.04.2025>
11. International Monetary Fund (IMF). Fiscal Transparency Code. – Washington, D.C., 2019.
12. OECD. Budgeting and Public Expenditures 2023 Report. – Paris: OECD Publishing, 2023.
13. Keynes, J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. – London: Macmillan, 1936.
14. Qosimova, D.R. "O'zbekiston Respublikasida davlat budget jarayonining takomillashtirilishi." // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, №4, 2023. – B. 67–74.

9 O'zbekiston Respublikasi Iqtisod va Moliya vazirligi hisobotlari. – www.mf.uz



15. Toshmatov, F.M. "Mahalliy budjetlar mustaqilligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari." // Moliya va bank ishi, №2, 2022. – B. 45–52.
16. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi rasmiy sayti. – URL: <https://www.mf.uz>
17. O'zbekiston Respublikasi "Ochiq budjet" axborot portal. – URL: <https://openbudget.uz>
18. OECD Library. Performance-Based Budgeting: International Experience and Lessons. – Paris, 2020.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>